


Turkmaniston Prezidenti rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keladi



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan
Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov joriy yil 4-5 oktyabr
kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ladi.**

Bo'lajak oliy darajali uchrashuv kun tartibiga O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini kengaytirish va mustahkamlash masalalari [kiritilgan](#).

Asosiy e'tibor savdo, transport va tranzit, energetika sohalaridagi iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, sanoat, qishloq va suv xo'jaligida kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi aloqalarni faollashtirish, madaniy-gumanitar almashinuv bo'yicha qo'shma dasturlarni amalga oshirishga qaratilishi kutilmoqda.

Davlat rahbarlari xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashadilar.

Tashrif doirasida qator ikki tomonlama tadbirlar, shu jumladan Iqtisodiy forum o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlarining Qo'shma bayonotini qabul qilish, ko'p qirrali sheriklikni jadallashtirishga qaratilgan hujjat va shartnomalarning salmoqli to'plamini imzolash ko'zda tutilgan.